

samarali yechimining topilishi ham juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shunday qilib, yuqorida ta’kidlab o’tilgan masalalarning muvaffaqiyatli yechim topishi mintaqalarda investitsion faoliyatning rivojlanishi uchun qulay muhitning yaratilishiga, aholining hayot kechirish sifat darajasining yaxshilanishiga va texnologiyalar transferining jadallashtirilishiga ko’maklashadi.

## **HUDUDLAR BARQAROR RAQOBATBARDOSHLIGINI TA’MINLASHDA ESG TAMOYILLARIGA ASOSLANGAN MOLIYA BOZORI RIVOJLANISHINING AHAMIYATI**

***Ismatova Sevara Abdushukur qizi***

*TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi*

***Annotatsiya.*** Mazkur tezisda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida ESG-ga yo’naltirilgan moliya bozori mexanizmlarini joriy etish masalalari normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, xalqaro amaliyotning komparativ o‘rganilishi hamda konseptual modellashtirish asosida yoritilgan. ESG instrumentlarining ishlash mexanizmi va ularni bosqichma-bosqich joriy etish modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari barqaror moliyalashtirish vositalari hududiy investitsion jozibadorlikni oshirish, risklarni kamaytirish va kapital bozorini chuqurlashtirishga xizmat qilishini ko’rsatadi.

***Kalit so‘zlar:*** ESG, barqaror moliya, yashil obligatsiyalar, kapital bozori, hududiy rivojlanish, investitsion jozibadorlik, barqaror iqtisodiyot.

Global moliya tizimida ESG tamoyillariga asoslangan kapital oqimlari so‘nggi o‘n yillikda sezilarli darajada kengaydi. Global Sustainable Investment Alliance ma’lumotlariga ko‘ra, barqaror investitsiyalar hajmi trillionlab dollar miqyosiga yetgan va ular global boshqaruv ostidagi aktivlarning muhim qismini tashkil etmoqda. Bu tendensiya investorlar uchun ekologik va ijtimoiy risklarni inobatga olish moliyaviy natijadorlik bilan uzviy bog‘lanayotganini ko’rsatadi.

Global barqaror moliya bozori dinamikasi ESG mexanizmlarining iqtisodiy asosini tasdiqlaydi. Global Sustainable Investment Alliance hisobotiga ko‘ra, 2020-yilda global barqaror investitsiyalar hajmi 35,3 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, bu 2016-yilga nisbatan qariyb 15 foiz o‘shishni anglatadi. 2022-yilgi hisobotga ko‘ra, ayrim hududlarda barqaror investitsiyalar ulushi umumiy boshqaruv ostidagi aktivlarning 30-50 foizigacha yetgan. Bu investorlar qarorlarida ESG omillari tizimli ahamiyat kasb etayotganini ko’rsatadi.

Yashil obligatsiyalar bozori bo‘yicha Climate Bonds Initiative ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda global yashil obligatsiyalar emissiyasi 500 milliard AQSh dollaridan oshgan, 2023-yil yakunlariga ko‘ra esa yillik emissiya hajmi 580 milliard dollarga yaqinlashgan. 2015-yilda bu ko‘rsatkich 50 milliard dollardan kam bo‘lganini hisobga olsak, sakkiz yil ichida bozor hajmi o‘n barobardan ortiq kengaygan.

International Capital Market Association tomonidan ishlab chiqilgan Green Bond Principles asosida chiqarilgan obligatsiyalar global yashil qarz bozorining asosiy qismini tashkil etadi. ICMA ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilga kelib yashil, ijtimoiy va sustainability turidagi obligatsiyalar umumiy emissiyasi 800 milliard dollardan oshgan.

OECD tahlillariga ko'ra, iqlim o'zgarishiga moslashish va yashil infratuzilma uchun global investitsiya ehtiyoji yiliga trillionlab dollar miqdorida baholanmoqda. Shu bilan birga, OECD ESG integratsiyasi yuqori bo'lgan kompaniyalarda kapital qiymati pastroq shakllanishi mumkinligini qayd etadi, chunki risk profili yaxshiroq baholanadi.

World Bank hisobotlarida barqaror moliyalashtirish mexanizmlari rivojlanayotgan davlatlarda infratuzilma moliyalashtirish bo'shlig'ini kamaytirishda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Jahon banki baholashlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma investitsiya ehtiyoji YAIMning 4-5 foizi atrofida bo'lishi mumkin.

Mazkur statistik ma'lumotlar ESG mexanizmlarining global kapital oqimlarida real ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Shu kontekstda "O'zbekiston - 2030" strategiyasida moliya bozorini rivojlantirish va yashil iqtisodiyot ulushini oshirish vazifalari ESG instrumentlarini joriy etish orqali qo'llab-quvvatlanishi mumkin. Agar global miqyosda yuzlab milliard dollarlik kapital barqaror loyihalarga yo'naltirilayotgan bo'lsa, milliy darajada normativ baza va instrumentlar mavjud bo'lganda ushbu oqimlardan foydalanish imkoniyati yuzaga keladi.

Shuningdek, Climate Bonds Initiative hisobotlariga ko'ra, yashil obligatsiyalar bozori izchil o'sish sur'atini namoyish etib, yillik emissiya hajmi yuzlab milliard dollarga yetgan. International Capital Market Association tomonidan ishlab chiqilgan Green Bond Principles esa ushbu instrumentlarning standartlashgan huquqiy asosini shakllantirgan.

ESG mexanizmlarining iqtisodiy mantiqi quyidagicha ishlaydi: ekologik va boshqaruv risklari past bo'lgan loyihalar investorlar tomonidan kamroq riskli deb baholanadi, natijada kapital qiymati pasayadi. Bu esa investitsiya oqimini tezlashtiradi. Hududiy darajada esa resurs samaradorligi va boshqaruv sifati yaxshilanishi orqali raqobatbardoshlik kuchayadi.

## 1-jadval

### ESG mexanizmi va hududiy raqobatbardoshlik o'rtasidagi bog'liqlik

ESG mexanizmi	Ta'sir yo'nalishi	Hududiy natija	Indikator
Yashil obligatsiyalar	Infratuzilma moliyalash	Energiya va suv tejamkorligi	Energiya intensivligi
Sustainability-linked kredit	Korporativ modernizatsiya	Texnologik yangilanish	ESG KPI bajarilish darajasi
ESG reyting	Risk baholash	Investitsion jozibadorlik	Kredit reytingi o'zgarishi
ESG hisobot	Shaffoflik	Investor ishonchi	Disclosure darajasi

*Manbalar: ICMA (2021), OECD Sustainable Finance Report (2021), World Bank Sustainable Finance Framework (2022).*

Yuqoridagi jadvalda ESG mexanizmlari bilan hududiy raqobatbardoshlik o'rtasidagi funksional bog'liqlikni tizimli shaklda ko'rsatadi. Jadvalda har bir moliyaviy instrumentning iqtisodiy ta'sir kanali va u orqali yuzaga keladigan hududiy natija ajratib berilgan.

Yashil obligatsiyalar infratuzilma va resurs tejamkor loyihalarni moliyalashtirish orqali energiya intensivligini kamaytiradi. Bu ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishiga va hududiy mahsulot raqobatbardoshligining oshishiga olib keladi. Sustainability-linked kreditlar esa korxonalarini ESG ko'rsatkichlarini yaxshilashga

rag'batlantiradi, natijada texnologik yangilanish tezlashadi va ishlab chiqarish samaradorligi ortadi.

ESG reyting mexanizmi investitsiya risklarini differensial baholash imkonini yaratadi. Risk profili aniq belgilangan hududlarda kapital qiymati pastroq shakllanadi, bu esa investitsiya oqimini jalb qiladi. ESG hisobot va disclosure talablari shaffoflikni oshirib, investor ishonchini mustahkamlaydi. Shunday qilib, jadval hududiy raqobatbardoshlikning bevosita moliyaviy mexanizmlar orqali shakllanishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, jadvaldagi ma'lumotlar ESG instrumentlari "eko-yo'naltirilgan tashabbus" emas, balki iqtisodiy samaradorlik va kapital narxlash tizimiga ta'sir qiluvchi mexanizm ekanini tasdiqlaydi.

## 2-jadval

### ESG joriy etish bo'yicha bosqichma-bosqich ko'rinishi

Bosqich	Asosiy chora	Mas'ul institut	Kutilayotgan natija
1-bosqich	ESG taksonomiya ishlab chiqish	Moliya vazirligi, Markaziy bank	Normativ aniqlik
2-bosqich	Pilot yashil obligatsiya emissiyasi	Fond birjasi, tijorat banklari	Kapital jalb qilish
3-bosqich	ESG reyting tizimi	Reyting agentliklari	Risk differensiasiyasi
4-bosqich	Raqamli monitoring platformasi	Iqtisodiyot vazirligi	Shaffoflik oshishi

*Manbalar: World Bank Sustainable Finance Guidance (2022), OECD ESG Policy Framework (2021).*

Keltirilgan jadvalda ESG-ga yo'naltirilgan moliya mexanizmlarini joriy etishning bosqichma-bosqich yo'l xaritasini aks ettiradi. Unda normativ asos yaratishdan boshlab, instrumentlarni amaliyotga tatbiq etish va monitoring tizimini shakllantirishgacha bo'lgan jarayon ketma-ketlikda berilgan.

Birinchi bosqichda milliy ESG taksonomiyasini ishlab chiqish normativ aniqlikni ta'minlaydi. Bu kapital bozorida yagona talqin va mezonlar tizimini shakllantiradi. Ikkinchi bosqichda pilot emissiyalar orqali moliyaviy instrumentlar sinovdan o'tkaziladi va bozor ishtirokchilari uchun amaliy tajriba yaratiladi.

Uchinchi bosqichda ESG reyting tizimi riskni baholash va kapitalni samarali taqsimlash imkonini beradi. Bu investorlar uchun hududlar o'rtasida taqqoslashni osonlashtiradi. To'rtinchi bosqichda raqamli monitoring va ochiq hisobot tizimi shaffoflikni kuchaytiradi hamda greenwashing riskini kamaytiradi.

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, ESG mexanizmini joriy etish bir martalik islohot emas, balki institutsional transformatsiya jarayoni hisoblanadi. Bosqichlarning izchilligi va o'zaro uyg'unligi mexanizm samaradorligini belgilaydi.

Natijada, ushbu jadval ESG instrumentlarini strategik rejalashtirish asosida amaliyotga joriy etish modelini ifodalaydi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasi maqsadlari bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ESG-ga yo'naltirilgan moliya bozori mexanizmlarini joriy etish hududiy rivojlanishning moliyaviy arxitekturasini o'zgartiradi. Kapital riskga mos ravishda baholanadi, infratuzilma modernizatsiyasi tezlashadi va investitsion ishonch mustahkamlanadi. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida ushbu mexanizmlarni bosqichma-bosqich joriy etish kapital bozorining chuqurlashuvi va hududlar o'rtasidagi tafovutlarning kamayishiga xizmat qilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Climate Bonds Initiative. Sustainable Debt Global State of the Market Report 2023.*
2. *Friede G., Busch T., Bassen A. ESG and Financial Performance // Journal of Sustainable Finance & Investment. 2015.*
3. *Global Sustainable Investment Alliance. Global Sustainable Investment Review 2022.*
4. *International Capital Market Association. Green Bond Principles. 2021.*
5. *OECD. ESG Investing and Climate Transition. Paris, 2021.*
6. *World Bank. Sustainable Finance and Development Report. Washington DC, 2022.*
7. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston - 2030 strategiyasi. Toshkent, 2023.*

## **O'ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHINI MOLIYA BOZORI VA ESG TAMOYILLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

**To'g'onov Ibroximxo'ja**

*International School of Finance Technology and Science  
Menejment kafedrasi assistenti, TDIU Mustaqil tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda “O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini moliya bozori mexanizmlari hamda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari asosida takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli transformatsiya jarayonlarining sanoat innovatsiyalari va investitsiya faolligiga ta'siri, yashil moliya instrumentlarining ahamiyati hamda barqaror moliyalashtirish mexanizmlarining istiqbollari asoslab berilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ESG tamoyillariga asoslangan moliyaviy infratuzilma sanoat korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston – 2030 strategiyasi, moliya bozori, ESG, innovatsion faoliyat, raqamli transformatsiya, yashil moliya, barqaror investitsiyalar, innovatsion faoliyat, texnologik modernizatsiya, raqamli boshqaruv, ishlab chiqarish samaradorligi.

Global iqtisodiyotda raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish tamoyillari sanoat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylanmoqda. Innovatsion rivojlanish endilikda faqat texnologik yangilanish bilan emas, balki moliyaviy barqarorlik, ekologik mas'uliyat va samarali korporativ boshqaruv bilan ham belgilanadi.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoatni yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirish, kapital bozorini rivojlantirish hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur maqsadlarga erishishda moliya bozori sanoat innovatsiyalarining asosiy moliyaviy manbai bo'lib xizmat qilishi lozim.

Shu jihatdan sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini ESG tamoyillari asosida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi

Innovatsion rivojlanish nazariyasi iqtisodiy o'sishning muhim ichki omillarini tushuntiradi. Klassik yondashuvga ko'ra, texnologik yangiliklar iqtisodiy tizimda “ijodiy vayronkorlik” jarayonini yuzaga keltirib, ishlab chiqarish tuzilmasini tubdan